

kórinisler bir sistemağa túsken halda metaforalıq bayanlawdı, awıspalı pikirdi keltirip shıǵarıwı kerek. Qosıqta usı mánilik, logikalıq tutaslıqıtı qosıq orayındaǵı bir obraz belgilep, metaforalıq súwretlew shınjırın jaratadı.

Juwmaq. J.Izbasqanov hám B.Genjemuratov lirikasında tutas kontekstli metaforalar qosıqtıń pútin mazmunı hám ishki formasına tásir etip, jetekshi kórkem xızmetti atqara alǵan. Bul birinshiden shayırlardıń ishki

talǵamı, dóretiwsilik stili menen baylanıslı. Erkin formada qosıq dóretken bul shayırlardıń obrazdı qosıqtıń oraylıq figurasına aynaldırıp, sol obrazǵa qatnaslı metaforalıq súwretlewdi ǵárezli ete alǵanı, súwretlew obyektlerin (metaforalardı) allegoriyalıq, simvolıq obrazlar (báhár, jawın) menen tutas logikalıq baylanıstırıwı shayırlardıń dóretiwsiligindegi ayrıqsha atap ótiwge ılayıq jetiskenlikleri.

Ádebiyatlar

1. Избасканов Ж. Ақ куслар. –Нөкіс: «Қарақалпақстан», 2014.
2. См. определения символа разными авторами, приведенные в кн.: Лосев А.Ф. Проблема символа в реалистическом искусстве. –М.: 1970. Теория метафоры. –Москва: «Прогресс», 1990.
3. Трифонова Н.С. Метафора в ранней лирике Анны Ахматовой. автореферат. дисс. на соискание ученой степени кан. фил. наук. –Екатеринбург: 2005.
4. Генжемуратов Б. Сайланды шығармалар. –Нөкіс: «Қарақалпақстан», 2012.
5. Турдимов Ш.Г. Поэтические символы в узбекских народных лирических песнях. Автореферат. –Ташкент: 1987.
6. Генжемуратов Б. Поэзия – бул илахий дунья... // «Эмиўдэрья», 1991, 11-сан.
7. Литературная энциклопедия. Терминов и понятий. –Москва: НПК «Интелвак», 2001.

REZYUME. Maqolada qoraqalpoq lirikasidagi kontekstli metaforalar J.Izbasqanov va B.Genjemuratov ijodi misolida tahlil qilindi.

РЕЗЮМЕ. В статье анализируются контекстуальные метафоры в каракалпакской лирической поэзии, рассматриваются примеры, представленные в произведениях Ж.Избасканова и Б.Генжемуратова.

SUMMARY. The article analyzes contextual metaphors in Karakalpak lyric poetry, examining examples presented in J.Izbaskanov and B.Genjemuratov's works.

Ádebiyattanıw

SYUJET POETIKASIDA MIFOLOGIK TALQIN USTUVORLIGI

F.K.Allanazarova – *filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: hikoya, afsona, zulm, zo'ravonlik, ramz, uyg'unlik, rostlik, qahramon, vosita, jism, syujet, mavjudlik.

Ключевые слова: рассказ, легенда, угнетение, насилие, символ, гармония, истина, персонаж, средство, тело, сюжет, присутствие.

Key words: story, legend, oppression, violence, symbol, harmony, truth, character, means, body, plot, presence.

Insoniyat badiiy tafakkurining taraqqiy etish davridan buyon epik turning eng kichik janrlaridan biri hikoya azim qadriyatlarini o'zida jamlagan barqaror shakl sifatida namoyon bo'lmoqda. Antik yunon madaniyatidan to bugunga qadar hikoyat, hikoya, rivoyat shaklida yashovchanlik kasb etib, inson ijtimoiy-psixologik kayfiyatining muayyan nuqtalarini, jamiyat hayotida tutgan o'zni va maqsadlarini o'zida aks ettirib kelayotgani bilan ahamiyatlidir. Shuni qayd etish zarurki, g'arb adabiy estetik tafakkuri hosilasi o'laroq shakllangan hikoyalar an'ana va noan'ana orasidagi chegarani qorishtirib yuborish hollari ham kuzatildi. Yangi davr boshlab bergan tasvir ekzistensiyalarida bu anchayin turfalandi. Inson shaxsini idrok etish masalalari ranginlashdi. Ramziy metaforik tasvir kolliziyalari bilan to'yintirildi. Mana shu jarayonda insoniy munosabatlar tig'izligi hamda idrok falsafasi o'zgarishlarga duch keldi. Endilikda global dunyo ohanglarini his qilish, nafas olayotgan zamondosh inson kechinmalarini talqin qilish ustuvorlashdi. Maqsad aniq bo'ldi. Yo'ldagi turfa ziddiyatlar qurshovida qolgan bani odam uchun mushkulotlarni yengib o'tish odatiy holga aylandi. Yozuvchilar ana shu oltin o'rtalikni chamalab, talqin boshqaruvini yangiladi. Bularning barchasi – noan'anaviy idrok zamamalarida qorishiq holda yuzaga chiqdi. Shuni aytish lozimki, hikoyada syujet vaqti kompozitsiya vaqti bilan muayyan darajada farqlanadi. Syujetdagi o'sish-o'zgarishlar, olg'a siljishlar, yozuvchi "men"i bilan

payvandlansa, kompozitsiyada asar qahramonlari xarakteri ruhiyatidan kelib chiqqan holda tartiblashadi. Bunday paytda yozuvchining har bir talqinida inson taqdiriga daxldor bo'lgan xususiyatlar o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Bir qarashda oddiydek tuyulgan syujetga ega hikoyalarda mifopoetik talqin muayyan boshqaruvni qo'lga oladi. Ramz va mifologiya qorishib, yangi inson obrazini yuzaga chiqishida kalit vazifasini o'tashi tayin.

Adabiyot nazariyasiga oid darsliklarda qayd etilishicha: "Hayotdagi faktlar bilan yozuvchi niyatining uyg'unlashib turib, hikoya asosini tashkil etuvchi voqea va xarakterlar tizmasi syujetdir. Yozuvchi niyatidan kelib chiqib, syujet har xil: oddiy yo murakkab bo'lishi mumkin. Syujet hikoyada bo'lishi shart. Biroq u unday yoki bunday bo'lishi muvaffaqiyatlidir, deb ko'rsatiladigan retsept yo'q. Hikoya syujetining qurilishi uning asosida yotuvchi g'oya va material bilan chambarchas bog'liqdir. Hikoyada syujet ko'pincha tugun, o'sish, kulminatsiya, yechim kabi elementlarga ega bo'lsa-da, har bir hikoyada ularning to'liq ravishda mavjud bo'lishi shart emas. Bu narsa yozuvchi maqsadidan kelib chiqadi. Asar voqeasi yuqoridagi elementlarning biridan ikkinchisiga o'tishi syujet liniyasining harakatini belgilaydi. Syujetga qarashli ekanligini ko'rsatib beruvchi asosiy omillardan biridir" [1:83-84].

Binobarin, mana shu manbaga qo'shimcha tarzda mifopoetik talqin ustuvorlik qilgan hikoyalarda ramz va

noan'anaviylik o'zaro uyg'unlashib, yangi bir tasvir qo'llanmasini vujudga keltiradi. Ayniqsa, zamonaviy hikoyalarda bu hol o'zgacha ravishda idroklanadi. Darvoqe, syujet liniyalari yozuvchi niyatidan kelib chiqqan holda tartiblanishi qonuniy holdir.

Bunday natijadorlik hikoyaning umummarkazida turuvchi asosiy g'oyaning mufassal yoritilishiga zamin hozirlaydi. Masalan, N.Eshonqul hikoyalarda Kafka va Kamyuning G'arb adabiyotida zuhur etilgan falsafiy-estetik mushohadaga boy qarashlari singdirilgan bo'lsa, I.Sulton ijodida Rumiy va Navoiy an'alarining epiklik ko'rinishi ko'zga tashlanadi. Har ikkala yozuvchi G'arb va Sharq adabiy an'alarida yuzaga kelgan qorishiq tasvir usulidan unumli foydalanganligining guvohi bo'lamiz. Isajon Sultonda qahramonlar oddiy qishloq odamlari, biroq ular ruhiyatida mehnatkash ommaning umumiy manzarasi aks etsa, Nazar Eshonqulda o'zligini topishga intilayotgan qahramonlar galereyasi qabarib ko'rinadi. Mazkur ikki jihatda ham syujet poetikasida mifologik talqin ustuvorlik qilganini anglash qiyin emas.

B.Karim e'tiroficha: "Ijod Pifagor jadvalida tizilgan raqamlar ko'paytirmasining absolyut-o'zgarmas takrori bo'lolmaydi, ijod psixologiyasi – juda murakkab ilm. Ammo chinakam yozuvchilar ichki intuitsiyasi bilan, albatta, qandaydir rejalar tuzadi; o'zining original-individual "absolyut haqiqatlar"iga ega bo'ladi. Aks holda asl durdonalar o'rnida oddiy voqealarning uzundan-uzoq, zerikarli stilistik bayonlari yig'ilib qoladi. Adabiy-badiiy, shakliy-struktural talqin uchun esa haqiqiy san'at obidasi, badiiy asar matni muhimdir" [3;47]. Haqiqatan ham, ijodkor qaysi yo'sinda voqelikni tartiblashtirmasin, o'zining g'oyaviy maqsadidan bir dam sira boshqa tomonga yurish qilmaydi. Uning uchun ijodiy konsepsiya tasavvur va tafakkur uyg'unligining hosilasi sifatida yuzaga chiqaveradi. Ayni shu jarayon syujet va kompozitsiyada o'z maromiga yetadi. Hikoya hozirjavob janr. Uning davr nuqtayi nazaridan ham, zamon nuqtayi nazaridan ham farqli xususiyatlari yillar mundarijasini "kashf" qilish manerasi bilan o'lchanadi. N.Eshonqulning "Sibizg'a volasi" mif-hikoyasida syujet poetikasi mifopoetik talqin qilinganini kuzatamiz:

"Nayzalari quyosh nurida yaltillab, go'yo o'z qilmishlarini falakdan yashirmoqchiday qalqonlari bilan yuzlarini to'sgan, shaharning tosh ko'chalarini xuddi nog'ora chalishayotganday bir maromda harbiychasiga to'qillatib, saf tortib kelayotgan uchta soqchi va oqsoq darbon allazamonlardan beri saroy uchun unut manzilga aylangan ko'chamiz boshida ko'rinishlari bilan men va navbat kutib turganlar, o'z yumushlari-yu tashvishlari bilan band odamlar, orzu va xayollarini tepkilab o'ynab yurgan bolalar, darvozalari oldida hayotning so'nggi xulosalari va saboqlari bitilgan sahifalarday bujmaygan aft-angorlari, musibat-u hasratdan bukilgan tanalarini toblab o'tirgan chollar, hammamiz, taqdir izmi bizning sartaroshxonaga va mening hayotimga qarab burilganini anglagandik" [5:107].

Ushbu misoldan ko'rinib turganidek, yozuvchi eski mifni yangicha talqin qilganligi seziladi. Yozuvchi dunyoni titratgan Iskandar dovru'g'ini, uning qismati bilan bog'liq qadim mifologiyani yangi zamon nafasi bilan tasvirlay olganki, bu yerda gapni mushohada tarozusida tortib ko'rganimizda ro'y-rost yuzaga chiqadi. Iskandar haqida yuzlab, minglab afsona, rivoyatlar mavjud. Hikoya nomidan ma'lumki, "Sibizg'a volasi", ya'ni nayning navosi eski zamonlardan beri kelayotgani, uni avlodlar o'zlariga

moslashtirib idroklayotgani ma'lum bo'ladi. Bunday paytda, davrning ham, zamonning ham o'z tutumlari yorqin ranglarda namoyon bo'ladi. Yozuvchi qadimiy mifologik voqelikni zamon bilan uyg'un ko'rinishini shu yerdan ham sezsa bo'ladi. Negaki, "O'zbek xalq ertaklari" kitobida bu haqda ertak-mifologiya borligi yuqoridagi fikrimizning yorqin dalilidir. Yozuvchi syujetni qayta mifologik voqelik bilan boyitadi, uning kompozitsiyasini to'g'ri tanlaydi, xarakterlarni qayta ishlaydi, saralaydi, o'z tasavvur olamida uni bo'rttirib, o'ziga xos tarzda inkishof qilganligida seziladi. Shuningdek, "Sibizg'a volasi" shakl jihatidan noan'anaviy, mazmun jihatdan an'anaviydir. Mavhum (abstrakt) tushunchalar zahirida aks etgan yozuvchi falsafiy qarashlari tamomila boshqa narsaga diqqat qilganligidir.

Hikoyaga tanqidiy munosabatda bo'lgan tadqiqotchi G.Sattorova shunday yozadi: "*Nazarimizda, yozuvchi inson fe'lidagi azaliy qusur – birovning sirini saqlay olmaslikka diqqatimizni tortayotganday, neki bir kishiga oshkor bo'lsa, so'ng hech kim uchun maxfiy bo'lib qolmagay, demoqchidek tuyuladi. Chunki hikoyaning asosiy maqsadi ham Iskandarning sirini hatto qamish ham ko'tara olmaganligi bo'lsa, yana bir jihati uni ezigulik timsoli deb bilgan odamlar aslini bilmasliklari, ya'ni u yovuzlik timsoli ekanini anglatish istagi sartarosh shuurini qamrab olganligidir. Bu bilan u insoniyatni falokatdan saqlab qolishga urinadi, go'yo. Zotan, butun boshli mamlakat fuqarolari Iskandarni Axuramazda (Yaxshilik xudosi)ning bolasi deb biladi. Sartaroshni esa odamlarga haqiqatni aytish istagi azoblaydi*" [4:23-24]. Bu fikrlar, bizningcha, biryoqlamadek tuyuladi. Maqolani o'qigan mutaxassis hikoyada yozuvchining ijodiy konsepsiyasida nima "sir yashirin" ekanligini to'liq anglay olmagan. Hikoyaning mavzusi, uning syujetida aks etgan hayotiy voqelikning ramzlarga yashiringanini tushunish uchun kamida yozuvchi ruhiyatiga teran kirib borish zarur. Shunday ekan, G.Sattorovanning mulohazalariga qo'shilib bo'lmaydi. Tahlil matn bo'ylab sayr qilar (R.Bart) ekan, yondashuvda xolislik bo'lmog'i lozim. Ana shundagina asar poetik olami, pafosi, yozuvchi ijodiy dunyosi, fikr-mulohazalari, ichki iztiroblari to'laqonli ochib boriladi.

Tadqiqotchi M.Bobxonov yozishicha: "Muallif asarda hikoya qilish tarzini qurar ekan, umumiy qilib aytganda, uning oldida ikki imkoniyat mavjud: yozuvchi bayonni u yoki bu individual ongga tayangan holda olib borishi, ya'ni subyektivligi oldindan ayon bo'lib turgan nuqtayi nazardan foydalanishi yoki voqealarni imkoni boricha betaraf (obyektiv) yoritishi mumkin. O'zgacharoq aytganda, u qandaydir bitta idrokning (yoki bir necha idroklarning) ma'lumotlarini yoki o'zigagina ma'lum faktlarni ishga solishi mumkin (O'z-o'zidan ayonki, ko'rsatilgan prinsiplarning turli-tuman kombinatsiyalari, variatsiyalari, ya'ni muallif pozitsiyasining turlicha almashinib kelishi ham kuzatiladi)" [2:103]. Darhaqiqat, yozuvchi ayni shu tamoyil asosida o'z-o'zini taftish qiladi. Tafakkur tarzini ham o'zgartirib, an'anaviylikdan chekinib, noan'anaviy tarzda yozishni ma'qul ko'radi. Shuningdek, "Sibizg'a volasi" hikoyasidagi tagqatlam aslida bugunning qiyofasiga urg'u berishdadir. Odamlarda sabr-toqatning so'nishi, hamma shuhrattalab bo'lib, boylik to'plash ilinjida o'z-o'zidan turli qing'ir yo'llarga o'tib ketishi, mehr-shafqatning so'nishiga ham qaratilgan qat'iy da'vat mavjudligi namoyon bo'ladi. Ya'ni odamlarning botinini egallab olgan nafs tushunchasi asarda katta ishorani

namoyish qiladi. Masalan, quduq va nay timsolini olib ko'raylik. Nay (sibizg'a)da ohang bor. Unda alamli og'riq bor. Bu og'riq ota-bobolarimizning erisha olmagan orzularidir. Yozuvchi Iskandar timsolida yangi zamon mifologiyasini ham tahlil qilib ketganligi ayon bo'lmoqda. Aslida, hikoya kompozitsiyasida xarakterlarni tasvirlashda yuqoridagi mushohadakor kechinmalar mavjudligi qabarib ko'rinadi.

Syujet poetikasining tizimli talqini yozuvchining konseptual manerasini to'laqonli idroklashga xizmat qiladi. XX asr boshlarida yaratilgan aksariyat hikoyalarda bu nazariy qoidalar anchayin qoliplashtirildi. Olam va odam manzaralari, xarakterlar orasidagi o'ziga xoslik, yangi zamon kishisi ruhiyatidagi o'sish-o'zgarishlar ayni bugungi hikoyanavislar izlanishlarida tamomila katta o'zgarishlarga yuz burdi. Istiqloq davriga kelib, hikoya ichida hikoya qilish, ramzlar va metaforalarga to'yintirish, xarakterlarni mavhumlikdan aniqlikka qadar olib chiqish arxitektonikasida tubdan yangilandi. Mana shu yangilanishlar zahirida inson taqdiri ustuvor ekanligi yozuvchilarning diqqat-e'tiborida bo'ldi. Nazar Eshonqul "Sibizg'a volasi" hikoyasidagi syujet poetikasini talqin qilar ekan, avvalo, shaxs ruhiyatida aks etgan o'sish va o'zgarishlarni tadriijiy asoslab boradi. Mana shu tamoyil negizida yozuvchining ijodiy konsepsiyasi barqaror birikma hosil qilganligi ma'lum bo'ladi.

Hikoyada mifologik talqin. Mif va mifologiya tushunchasi Nazar Eshonqul ijodining asosiy motivlaridan biri sanaladi. Yozuvchi mifni zamonga moslashtiradi. "Maymun yetaklagan odam" hikoyasidagi qariyaning umri poyoniga yetib, uning chiqargan xulosasi ayni shu bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi. Kafka hikoyalaridagi mifologik qatlam N.Eshonqul hikoyalarida yangi zamon kishisi ruhiyatini tashuvchi rolini o'ynaydi. Adib G'arb adabiy-badiiy tafakkuridagi o'ziga xos tasvir predmetini aniqlik bilan o'zbek adabiyotida yangicha idroklaydi. Bu yerda taqlid yoki ko'r-ko'rona ergashish, degan g'oyani nazarda tutmaslik lozim. Negaki, adib qaysi va qanday mavzuga qo'l urmasin, hamisha yangilikni targ'ib qiladi. Ikkinchi jihat, yozuvchining so'z qo'llash manerasining alohidaligida ko'rinadi. "Maymun yetaklagan odam" aslida sobiq ittifoq davrida iste'dodi bir uy ichkarisida va tashlandiq hovlidan sira nari chiqa olmagan iste'dodning so'nib borishi bilan bog'liq holda kechayotganini ko'rsatgani bilan o'lchanadi. Ayni shu hikoyada ko'p ma'no qatamlar aks etadi:

"Bu voqea uch yillar oldin bo'lgan edi. Shu ko'chadan bir uyni ijaraga olib ko'chib kelganimda cholning sharti ketib, parti qolgandi, u ko'chaning muyulishida men egallagan uyga qo'shni hovlida yashardi. Uni birinchi marta uyining oldidagi eski o'rindiqda chuqur o'yga tolgan holda ko'rgan edim. U qovoqlari soliq, soqoli qirilmagan, bir paytlar semiz bo'lgan, ajinlar taram-taram qilib tashlagan, ko'rimsiz yuzi badjahl ma'budlarning haykaliga o'xshab ketar, unga qaragan odamning yuragi noxush bir hisdan orqaga tortar edi. Ko'zlari hissiz va ifodasiz, egnida elliginchi yillarning andozasida tikilgan ancha salobatli kitel, baqbaqasi osilib turgan holda o'ychan o'tirardi.

Mashinadan kitoblarni katta etakda tashib kiritayotganimda – go'yo atrofidagi olamdan endi hech qanday iltifot kutmay qo'ygandek, hech narsaning qizig'i qolmagandek menga e'tiborsiz bir ko'z tashladi-da, so'ng yana o'sha holatida yerga qarab o'tiraverdi.

Bir necha kundan so'ng uy bekasidan bu cholning bir paytlar tuzukkina rassom bo'lganini va hozir ham surat chizib turishini eshitib, hayron qoldim. Uni hayotda omadi chopmagan biron amaldor bo'lsa kerak, deb taxmin qilgandim. Keyinchalik cholni tez-tez o'sha kitelida go'yo necha qadam umri qolganini o'lchab yurgandek og'ir qadamlar bilan uyiga yoki ko'cha boshidagi oziq-ovqatlar do'koniga qarab ketayotganini, gohida esa mahalla oshxonasida ovqatni titrab-qaqshab yeb o'tirganini, qovoqlari ostida odamlarga adovat bilan tikilib-tikilib qo'yganini ko'rib qolardim" [5:3].

Bu ko'zlari hissiz va ifodasiz cholni shu holga tushirgan kim? Uning taqdiriga yozuvchi nega buncha qiziqib qolgan? Mana shu ikki savol yozuvchini asar yozishga undagan aniq tayanch g'oyasi hisoblanadi. Mifologik qatlam – maymunning cholga nima aloqasi bor? Hikoya mavzusiga e'tibor berilsa, maymun yetaklagan odam! Nega odam yetaklagan maymun emas? O'tgan 70 yillik tuzumning sharti ketib, parti qolganini aniq dalillash deganda ayni shu maqsadni nazarda tutgan bo'lsa, ajabmas! Yozuvchining asl iddaosi ham – tuzum aybdormi, yoki insonning shaxs o'laroq yashashga haqli o'zimi? Tizginsiz savollar iskanjasida qahramonni boshdan-oyoq talqin qiladi. Rassom har bir chizgan rasmlari ostiga raqamlar qo'yadi. Milliy fojiamizning asl suratlarini chizgan iste'dodli rassomning ayanchli taqdiridan hikoya qiluvchi bu asarda o'zbeklar boshiga tushgan qatag'onlar-u yo'qotishlar tasvirlanadi. Ayni shu idrokda yozuvchining ramzlar va metaforalarni yangi zamon kishisi bilan eski zamon odamlari ruhiyati orasidagi qo'rquv nuqtasini topib tasvirlaganida yaqqol ko'zga tashlanadi. XX asr insoniyatga qo'rquv mifologiyasini olib keldi. Badiiy adabiyot ana shu qo'rquv qarshisida hech qanday ish qilishga o'zida jur'at topolmadi. Bu qo'rquvning darajalarini, zulmning sinoatini, shaxsning butun emas, parchalanishini, yo'q bo'lib, yakson bo'lishini qalamga olganligida bo'rtib ko'rinadi. Hikoyadagi asl mantiq "Cholning suratlarini go'yo sirli qo'rg'on edi" jumlasida o'z tajassumini topgan.

Xulosa qilib aytganda, yozuvchi mana shu tasvir prinsipi bilan hikoyachilikda noan'anaviy usullarning o'ziga xos shakllarini muvaffaqiyatli yaratishga erishdi. Unda G'arb falsafasi va Sharq milliy qadriyatlarini qorishib, sinkretik ruhda inkishof qilindi. Mana shu tamoyilning N.Eshonqul ijodida aniq mezonlarga tutashuvini bugungi adabiy tanqidchilik e'tirof etmoqda. Shuning uchun ham Kafka va Kamyu singari adiblar ijodidan ilhom olib, ularning ijod namunalaridan ta'sirlanish va milliy o'zbek hikoyachiligini yaratish borasida yangilanishlar muntazamligi davom etayotgani fikrimizning yorqin dalilidir. Zero, davr va zamon muammolari hamisha hikoyachilikda yangidan yangi obrazlarning kirib kelishiga zamin yaratib berayotgani haqiqatdir.

Adabiyotlar

1. Adabiy turlar va janrlar. –T.: «Fan», 1991.
2. Boboxonov M. O'zbek qissalarida badiiy psixologizm. –T.: «Bayoz», 2014.
3. Eshonqul N. Momoqo'shiq. –T.: «G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi», 2019.
4. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. –T.: «G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi», 2018.
5. Sattorova G. Cho'pchakdan ne muddao? // «Yoshlik», 2012 yil, № 9.

REZYUME. Ushbu maqolada yozuvchining har bir talqinida inson taqdiriga daxldor bo'lgan xususiyatlar o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Bir qarashda oddiydek tuyulgan syujetga ega hikoyalarda mifopoetik talqin muayyan boshqaruvni qo'lga oladi. Ramz va mifologiya qorishib, yangi inson obrazini yuzaga chiqishida kalit vazifasini o'tashi tayin.

РЕЗЮМЕ. В этой статье в каждой интерпретации писателя по-своему показаны черты, связанные с человеческой судьбой. Мифопоэтическая интерпретация берет под определенный контроль истории с простым на первый взгляд сюжетом. Сочетание символов и мифологии сыгрывает ключевую роль в появлении нового образа человека.

SUMMARY. In this paper, each writer's interpretation shows traits related to human destiny in a different way. Mythopoetic interpretation takes some control over stories with a seemingly simple plot. The combination of symbols and mythology will play a key role in the emergence of a new image of man.

ҚАРАҚАЛПАҚ ӘДЕБИЯТЫНДА ЖӘДИДЛИК ИДЕЯЛАРДЫҢ СӘҰЛЕЛЕНІҢІ

Б.А.Давлетов – филология илимлериниң кандидаты, доцент

Әжинияз атындағы Нөкис мәмлекетлик педагогикалық институты

Таянч сўзлар: жадид, дарслик, усул, маърифат, ғоя, жанр, кўшиқ, хикоя, пьеса, мусикий драма, сюжет.

Ключевые слова: жадид, учебник, метод, просветительство, идея, жанр, песня, рассказ, пьеса, музыкальная драма, сюжет.

Key words: novel, textbook, method, enlightenment, idea, genre, song, story, play, musical drama, plot.

Кирисиў. Жәдидшилик XIX әсирдиң ақыры XX әсирдиң басларында Түркистан аймағында қәлиплесип, раўажлана баслады. Бул дәўирде жәдидлер хәрекеті ең дәслеп мәдений- ағартыўшылық, жәмийетлик-сиясий, сиясий- экономикалық тараўларда көзге тасланды. Бүгинги күнде елимизде ағартыўшылық, жәдидлик идеялардың кеңнен ен жайыўына хәм оның әхмийетли тәреплериниң үйренилиўине айрықша итибар қаратылмақта. Хүрметли ел басшымыз М.Ш.Мирзиёевтиң атап өткенидей, «Тилде, пикирде, жумыста бирлик» деген жақсы идея менен майданға шыққан жәдид бабаларымыз халықларымызды надалық хәм қалақлықтан алып шығыў, оларды ғәплет батпағынан қутқарыўдың тийкарғы жолы – билим хәм ағартыўшылықта, дүньялық раўажланыўды ийелеўде, деп билди» [1]. Әсиресе, жәдидлик идеялардың баслаўшыларының дәретиўшилик жолын, хызметлерин үйрениў, олардың билимлендириў, ағартыўшылық жумысларын раўажландырыўдағы хызметлериниң айрықшалығын талқылаў бүгинги күнде әхмийетли мәселелерден саналады.

Әдебиятлар анализи хәм методология. «Жәдидшилик» арабша «жәдид» («жаңа») сөзинен алынған. Кең мәниде жәмийетлик – руўхый турмыстың барлық тараўларын жаңалаўды нәзерде тутқан» [2:4].

«XX әсирдиң биринши шерегиндеги Түркистан жәдидлериниң тийкарғы мақсети – түркий халықлар ғәрәсизлиги, ондағы орта әсирлик монархиялық артта қалыўшылықты сапластырыў, елди, халықты билимли, саўатлы болыўға шақырыў, керек десе, Европа халықлары мәдениятынан да пайдаланыў, ол ушын елде улыўма билим беретугын, улыўма пәнлер оқытылатугын мектеплер ашыў, бул жолдағы жәдидлик-демократиялық – хәрекетлердиң тийкарғы бағдарларын халыққа түсиндиретугын хәм жаңа идеяларды таратыў ушын баспа сөз, газета, журналлар шөлкемлестириўден ибарат еди» [3:13]. «Жәдидлер халық ушын жаңа усылдағы мектеплер ашыў, сабақлықлар жаратыў, газета-журналларды баспадан шығарыў арқалы өз идеяларын тарқатыўға хәрекет еткен» [4:145-149].

Жәдидшилик әдебияты ўәкиллери түркий тиллес халықлар әдебиятында, соның ишинде, өзбек әдебиятында М.Бехбудий, А.Фитрат, А.Шолпан, А.Қадирий, А.Авланий хәм тағы басқалардың әдебий

мийрасларында көринсе, қарақалпақ әдебиятында Қазы Мәўлик, С.Мәжитов, Қ.Әўезов, Ә.Өтепов, Х.Ахметов, И.Фазылов, А.Дабылов т.б. шайырлардың дәретиўшилигинде өз сәўлелениўин тапқан.

Изертлеўдиң жүзеге келиўинде көркем – эстетикалық, структуралық анализ методларынан пайдаланылды.

Талқылаў хәм нәтийжелер. Қазы Мәўликтин халықты ғалаба саўатландырыў ислериндеги хызметлери айрықша. Шайырдың Бухара медресесинде тәлим алыўы елимизде жәдидлик идеяларды раўажландырыўына түртки болды. Ол араб, парсы, түркий тиллерди жетик билген. «1910-14-жыллардан баслап Қазы Мәўлик Шымбай қаласында талабаларға сабақ береді» [5:105]. Қарақалпақ әдебияты тарийхын Шығыс хәм туўысқан халықлар әдебияты, мәденияты, тарийхы менен жақыннан таныстырады. «Шымбай қаласында Қазы Мәўлик дөгерегине бир неше шайыр, қыссахан шәкиртлерин топлап, оларға устазлық етеди. Қыссаханлар мектебин дүзеди» [6:110]. Ол араб ертеклерин, айырым қыссаларды, «Ғөрүғлы», «Юсуп-Ахмет», «Ғәрип ашық» дәстанларын, «Түс жорыў» китабын, Фирдаўсий, Низамий Генжавий, Әлийшер Наўайы, Мақтымқулының шығармаларын қарақалпақ тилине аўдарады.

С.Мәжитов – XX әсирдиң 20-жылларында қарақалпақ әдебиятында қәлем тербеткен шайырлардан бири. Ол әдебиятта хәм шайыр, хәм жазыўшы, хәм драматург, хәм ағартыўшы сыпатында кеңнен танылған. Шайыр XX әсир басларындағы жәдидлик хәрекетлерге қатнасып, халықты ғалаба саўатландырыў ислеринде белсендилик көрсетеди. Усы тийкарда С.Мәжитов тәрәпинен қарақалпақ тилиндеги бир қатар сабақлық, оқыў қолланбалар таярланады. Атап айтқанда, «Қарақалпақ тилиндеги әлипбе», «Егеделер саўаты», «Оқыў китабы» (Ташкент, 1925-жыл) атлы сабақлықларды дүзди хәм басып шығарды» [7:7]. Шайыр өзи дүзген сабақлықларында, туўысқан халықлар әдебиятынан, Л.Толстой, И.Алтынсарин гүрриндерин, И.А.Крыловтың тымсалларынан үзиндилер, шығыс халық ертеклеринен үлгилер киргизген. Сондай-ақ, Әжинияздың «Бозатаў» поэмасы да «Егеделер саўаты» китабынан орын алған. Соның менен бирге, шайырдың өзи де тәлим-тәрбияға, оқыў, билим алыўға, илим үйрениўге байланысly көплеген